



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING AXBOROT TEKNOLOGIYALARIGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Sindarov S.Q.

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tayanch so‘zlar: kompetentlik, axborot texnologiyalari, ta’lim muhiti, pedagogik dasturiy vosita, motivatsiya, kognitiv.

Ключевые слова: компетентность, информационные технологии, образовательная среда, педагогическое обеспечение, мотивация, когнитивность.

Key words: competence, information technologies, educational environment, pedagogical software, motivation, cognitive.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning barcha sohalarga tadbiq etish ko‘lami kengayishi va kompyuter qurilmalarining zamonaviylashuvi, unga mos dasturiy vositalarni takomillashuvi tufayli bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot texnologiya (AT)lariga oid kompetentligini rivojlantirish muammosi paydo bo‘lmoqda.

Ushbu muammoni yechish uchun oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashga qo‘yilgan malaka talablarida ta’lim ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarishni ta’minlaydigan yangi yondashuvlarni joriy etishni, ya’ni zamonaviy raqamli o‘quv vositalar va ilg‘or pedagogik texnologiyalar yordamida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish orqali bo‘lajak mutaxassislarni, jumladan bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishni taqozo etadi.

Bu borada mamlakatimiz, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida, ya’ni oliy ta’lim muassasalarida talabalarining kompetentligini rivojlantirish nazariyasi va amaliyotga oid tadqiqotlar N.A.Muslimov [5, 6], M.H.Usmonboyeva [6], D.M.Sayfurov [6], A.B.To‘rayev [6], K.Abdullayeva [5], S.N.Lukashenko [1], A.A.Demchuk [2], A.L.Nikitina [3], A.F.Remizov [4] kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Mazkur keltirilgan olimlarning ishlarida kompetentlik tushunchasiga oid ta’riflar, oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasibiy kompetentligini



shakllantirish va rivojlantirishda turlicha fikr, mulohazalar hamda yondashuvlarni ilgari surgan.

Xususan, N.A.Muslimov [5, 6], K.Abdullayeva [5], M.H.Usmonboyeva [6], D.M.Sayfurov [6], A.B.To‘rayev [6]larning fikriga ko‘ra, “Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishdir. Ularning fikricha, kompetentlik – olingan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish darajasi bo‘lib, bu ham talabning amaliyot jarayonida va oliy ta‘limdan keyingi faoliyatida shakllanib boradi [5].

A.A.Demchuk [2], A.L.Nikitina [3], A.F.Remizov [4]larning fikriga ko‘ra, “kompetentlik” tushunchasi kognitiv-bilim bilan bir qatorda motivatsion, faollik, kommunikativ va reflektiv komponentlarni ham o‘z ichiga oladi. Mazmun jihatidan kompetentlik jarayonni birlashtiradi (ma‘lum bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plamidan tashqari) hamda ijtimoiy me‘yorlar va qadriyat yo‘nalishlarini ishlab chiqish, o‘zlashtirish, ularni o‘z faoliyatida amalga oshirish qobiliyati, kasbiga qadriyat sifatida munosabatini anglatadi.

“Kompetentlik” tushunchasini tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak dastlab, ta‘lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik noan‘anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi va noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma‘lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi hamda murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi [6].

N.A. Fomenkning fikriga ko‘ra, didaktikada “kompetentlik” tushunchasi o‘qitish, mustaqil o‘rganish va kasbiy tajriba orqali shakllanadigan shaxsning mehnatga tayyorligi deb hisoblaydi [7].

E.F.Zeer, O.N.Shaxmatovalarning ta‘kidlashicha, kasbiy kompetentlik kasbiy faoliyatni amalga oshirishning kasbiy bilimlari, malakalari va usullari majmuidir [8].

A.V.Xutorskoy kompetentlikni quyidagi ta‘rifini beradi: “Kompetentlik obyektlar va jarayonlarning ma‘lum doirasiga nisbatan aniqlangan va ularga nisbatan yuqori sifatli samarali faoliyat uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bog‘liq shaxs fazilatlarini (bilimlar, qobiliyatlar, ko‘nikmalar, faoliyat usullari) majmuini o‘z ichiga oladi” [9].

Bu kabi fikrlar O.N.Griban [10], V. I.Baydenko [11]larning ishlarida ham keltirilgan. Ularning fikricha, kompetentlik – bu insonga kasbiy va ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida muammolarni hal qilish hamda natijalarga erishish imkonini beradigan asosiy bilimlar, umumiy (universal) ko‘nikmalar, qobiliyatlar



va tajribalardir. Ye.A.Kozlovani tabiri bilan aytganda, kompetentlik ortiqcha kasbiy mahorat va shaxsiy xususiyatlar, masalan, o'zini-o'zi rivojlantirish, tarbiyalash, ijodkorlik, jamoada ishlash qobiliyati, mantiqiy fikrlash, umumiy kasbiy kompetentlikni, shu jumladan har qanday bosqich va ta'lim darajasidagi yuqori malakali texnik mutaxassisni shakllantirish, uning kasbiy harakatchanligini aniqlash uchun zarur bo'lgan fundamental bilim va ko'nikmalarni tahlil qilish qobiliyatidir [16]. Binobarin, kompetentlik jamiyatning har bir a'zosi ega bo'lishi kerak bo'lgan va turli vaziyatlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan tushunchadir.

Kompetentlik masalalariga oid tadqiqotlar Yevropa davlatlarida ham tadqiqot ishlari olib borilgan. Bunda Yevropa Kengashi kompetentlikni beshta asosiy qismga ajratgan [16]:

1. Mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, birgalikda qaror qabul qilish, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, demokratik jamiyat hayotida faol ishtirok etish uchun mas'ul bo'lgan siyosiy va ijtimoiy kompetentlik.

2. Ko'p madaniyatli jamiyat hayoti bilan bog'liq kompetentlik. Bu kompetentlik yoshlarda bag'rikenglikni singdirishga qaratilgan.

3. Ko'p tillarda gapirish zaruriyatini belgilaydigan, insonlar o'rtasidagi aloqalarini tiklaydigan va muloqotni soddalashtiradigan kompetentlik.

4. Axborot jamiyati bilan bog'liq kompetentlik: jamiyatda tarqatilayotgan axborotni filtrlash va unga tanqidiy munosabatda bo'lish.

5. Talabalarning kasbiy va jamoat hayotida umrbod ta'lim olish motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan kompetentlik.

Ilgari surilayotgan tadqiqotda yuqorida keltirilgan kompetentlik tushunchalarini tahlil etish asosida bo'lajak o'qituvchining axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishda iborat hisoblanadi.

Ushbu masalalar bo'yicha, ya'ni talabalarni axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlar A.A.Kuznetsova [12], V.Y.Nikishina [13], L.V.Otverchenko [14], O.N.Griban [15] kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ularning ishlarida axborot texnologiyalariga doir kompetentlik tushunchasi va talabalarning kompetentligini rivojlantirish bo'yicha turlicha fikrlar bildirilgan.

Xususa, A.A.Kuznetsovaning fikriga ko'ra, axborot texnologiyalariga oid kompetentlik shaxsning kompyuterning zamonaviy texnik bilim va ko'nikmalarni hayotda samarali qo'llash qobiliyati sifatida belgilaydi [12]. V.Y.Nikishinaning fikriga ko'ra, mutaxassisni kasbiy axborot kompetentligi zamonaviy texnologiyalar va kompyuter tarmoqlaridan foydalangan holda turli xil professional muammolarni hal qilishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan "insonning integral xarakteristikasi" dir [13]. L.V.Otverchenkoning fikriga ko'ra, kasbiy axborot kompetentlikni shakllantirish



“talabalarning nazariy tushunchalari va tegishli axborot (kompyuter) jarayonlari hamda texnologiyalarining faoliyat uslublarini ishlab chiqishda boshqariladigan yutuqlari” deb, ta’riflaydi [14]. O.N.Gribanining fikriga ko‘ra, axborot texnologiyalariga oid kompetentlik – bu shaxsning axborot jamiyatida muvaffaqiyatli yashash va ishlash uchun turli xil muammolarni hal qilishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatidir [15].

Yuqorida keltirilgan olimlarni ishlarida axborot texnologiyalariga oid kompetentlik tushunchasi va uning mohiyatiga oid fikr mulohazalar yuritilgan bo‘lib, biroq bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish to‘laligicha ilmiy asoslanmagan.

Shu bilan birga N.A.Filinova [17], A.A.Kuznetsova [18], E.K.Henner [18], B. E. Starichenko [19] lar bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borgan.

Jumladan, N.A.Filinova o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish usullarini o‘rgangan [17]. A.A.Kuznetsova [18], E.K.Henner [18], B.E.Starichenko [19]lar kasbiy ta’lim sharoitida o‘qituvchining yangi axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish masalalarini o‘rgangan.

Ushbu tadqiqotchi-olimlarning ishlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishni ayrim yondashuvlari ilgari surilgan bo‘lsa-da, biroq raqamli texnologiyalar takomillashuvi va ta’lim jarayoniga keng ko‘lamda tadbiiq etilishi tufayli, bu sohaga oid tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati paydo bo‘lmoqda. Shuning uchun ilgari surilayotgan tadqiqot bugungi kunda dolzar hisoblanadi.

Chunki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni rivojlanishining yangi bosqichi aqlli qurilmalar, masalan, smartfon, smartboard, planshet, smart-karta va boshqalarning paydo bo‘lishi bilan belgilandi. Shuningdek, mobil telefonlar, kompyuterlar va Internet odamlar yashash maydonining tabiiy elementlariga aylanib bormoqda. Bu esa bilimlar jamiyatida yangi amaliy ko‘nikmalarni o‘rganishni taqozo etadi: tarmoqlarda muloqot qilish, ma’lumotlarni qidirish va tanlash, elektron manbalar bilan ishlash, raqamli ta’lim resurslarini ishlab chiqish. Shu bois zamonaviy sharoitlarda bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotchilarni ko‘plab ilmiy va uslubiy adabiyotlar mavjud. Ilgari surilayotgan tadqiqotda ushbu manbalarni tahlil etish orqali pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini



rivojlantirishdagi turkum muammolarni aniqlash va ularni yechishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda iborat hisoblanadi.

Shuning uchun tadqiqot muammosiga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlarning hamda mavjud oliy ta'lim muassaslardagi holatlarning tahlili tahliliga ko'ra, ayni paytda bo'lajak o'qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjud:

- bo'lajak o'qituvchilarning raqamli vositalar bilan ishlashga oid kompetentligini rivojlantirishni pedagogik shartlarini tahlil etish asosida takomillashtirish;
- bo'lajak o'qituvchilarning zamonaviy ta'lim muhitlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish;
- bo'lajak o'qituvchilarning mashg'ulotlarni loyihalashga o'rgatishda bulutli texnologiyalardan foydalanishga doir ijodiy qobiliyatini oshirish;
- bo'lajak o'qituvchilarning virtual muhitlarda jamoa bo'lib raqamli ta'lim texnologiyalarni loyihalashga doir mantiqiy va algoritmik fikrlashini rivojlantirish;
- bo'lajak o'qituvchilarni mobil ilovalar yordamida pedagogik dasturiy vositalar ishlab chiqishga oid ijodiy qobiliyatini oshirish.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan turkum muammolarni bartaraf etish orqali bo'lajak o'qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid ijodiy qobiliyatini oshirishga, kognitiv fikrlashini va kompetentligini rivojlantirishga erishiladi.

Adabiyotlar:

1. Лукашенко С.Н. Развитие исследовательской компетентности студентов вуза в условиях многоуровневой подготовки специалистов // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Тюмень, 2012. – 27 с.
2. Демчук А.А. развитие социальной компетентности студентов в поликультурной образовательной среде вуза // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Владикавказ-2010. – 23 с.
3. Никитина А.Л. Формирование профессиональной компетентности студентов в среднем профессиональном образовании посредством построения и анализа математических моделей прикладных задач профессиональной деятельности // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2014. – 25 с.
4. Ремизов А.Ф. Формирование компетенции сатирической компетентности студента в образовательном процессе // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Оренбург, 2006. – 28 с.
5. Муслимов Н.А., Абдуллаева Қ, Бўлажак касб-хунаар коллежи ўқитувчиларининг касбий компетентлигини ривожлантиришининг айрим масалалари. / “Олий таълим муассасалари педагог ва бошқарув кадрларининг малакасини ошириш назарияси ва амалиёти” мавзуси-даги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент: ТДПУ, 2012. 26-28-б.
6. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфулов Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. – Тошкент, 2015. – 120 б.
7. Фоменко Н.А. Компетентность и компетенция: понятие и сущность [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.superinf.ru/view_helpstud.php?id=2361



8. Зеер Э. Ф. Личностно ориентированные технологии профессионального развития специалиста. Научно-методическое пособие / Э. Ф. Зеер О. Н. Шахмотова. – Екатеринбург, 1999. – 245 с.
9. Хуторской, А. В. Ключевые компетентности как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования / А. В. Хуторской // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58-64.
10. Грибан О.Н. Формирование информационной компетентности студентов исторического факультета педагогического вуза // Диссертация на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. – Екатеринбург, 2012. – 254 с.
11. Байденко В. И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования ГОС ВПО нового поколения: метод. пособие / В. И. Байденко. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006. – 72 с.
12. Кузнецов А. А. Основы общей теории и методики обучения информатике / А. А. Кузнецов. – М.: Бином, 2010. – 207 с.
13. Никишина В.Ю. Формирование профессиональной информационно-технологической компетентности будущих менеджеров в вузе культуры // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2011. – 25 с.
14. Отверченко Л.В. Информационно–технологическая компетентность российских школьников в контексте формирования информационной культуры // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Ростов: Пи ЮФУ, 2008. – 27 с.
15. Грибан О.Н. Новые информационные технологии в образовании: проблема перехода на свободное программное обеспечение / О.Н. Грибан // Информационные технологии в образовании: материалы II межд у-народной научно-практической конференции «Информационные технологии в образовании (ИТО-Черноземье – 2008)». Курск, 8 – 11 декабря 2008 г. Ч. 1. – Курск, 2008. – С. 131-133
16. Козлова Е.А. формирование компетентности в области информационных и коммуникационных технологий у бакалавров по направлению подготовки «технология изделий легкой промышленности // Диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. –Чебоксары, 2015. – 180 с.
17. Филинова Н. А. Развитие икт-компетентности педагогов: подходы и содержание // <https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/105329/1/%D0%A4%D0%B8%D0%BB%D0%B8%D0%BD%D0%BE%D0%B2%D0%B0-409.pdf>
18. Кузнецов А. А., Хеннер Е. К., Имакаев В. Р., Новикова О. Н. Проблемы формирования информационно-коммуникационной компетентности учителя российской школы [Электронный ресурс] // Образование и наука. – 2010. – № 7 (75). – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-formirovaniyainformatsionno-kommunikatsionnoy-kompetentnosti-uchitelya-rossiyskoyskhkoly> (дата обращения: 10.04.2024).
19. Стариченко Б. Е. Профессиональный стандарт и ИКТ-компетенции педагога / Б.Е. Стариченко // Педагогическое образование в России. – 2015. – № 7. – С. 6-15.

РЕЗИОМЕ

Ushbu maqolada kompetentlik va axborot texnologiyalariga oid kompetentlik tushunchasi ochib berilgan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish muammolari va yechimlariga doir fikr mulohazalarkeltirilgan.

РЕЗИОМЕ

В этой статье раскрывается понятие компетентности и компетентности в области информационных технологий. Также обсуждается проблемы и решения развития компетентности будущих педагогов в области информационных технологий.

SUMMARY

This article reveals the concept of competence and competency in the field of information technology. The problems and solutions for developing the competence of future teachers in the field of information technology are also discussed.